

## TEKNOLOGIYA FANI DARSLARIDA O'QUVCHILAR KREATIV FAOLIYATINI TASHKIL ETISH MASALALARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11530328>

**Kadirova Nilufar Mirzaakbarovna**

*ped. fan. fal. dok. (PhD)*

*Namangan viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi  
Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari kafedrasi mudiri.*

*kadirovanilufar81@gmail.com*

### **Annotatsiya**

Mazkur ilmiy maqolada ta'lim-tarbiya jarayonida bolalardagi yashirin iste'dodlarni yuzaga chiqarish, o'quvchilarda kreativlik faoliyatini namoyon qilishi uchun imkoniyat yaratish, ulardagi kreativlik qobiliyatni rivojlantirish kelajakda yuksak salohiyatli, ijtimoiy faol, o'tkir zehni, kashfiyotchilik qobiliyatini namoyon eta oladigan raqobatbardosh kadrlarni voyaga yetkazish haqidagi ilmiy farazlar bayon etilgan. Bundan tashqari darslarda interfaol ta'lim metodlari, hamkorlik ta'lim texnologiyalaridan foydalanish orqali o'qituvchilar kreativ fikrlashni rag'batlantiradigan qiziqarli o'quv tajribalarini yaratish, jamoaviy hamkorlikni rivojlantirish va o'quvchilar o'rtasida muloqot qilish qobiliyatini oshirish muhokama qilinadi.

### **Kalit so'zlar**

Kreativ faoliyat, hayotiy ko'nikmalar, texnologik ta'lim, kompetentsiya, muloqot, loyiha, tanqidiy fikrlash, jamoaviy hamkorlik, kreativ salohiyat.

## ПРОБЛЕМЫ ОРГАНИЗАЦИИ КРЕАТИВНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧЕНИКОВ НА УРОКАХ ТЕХНОЛОГИИ

**Кадирова Нилуфар Мирзаакбаровна**

*док.фил.пед.наук (PhD),*

*Заведующий кафедры методики дошкольного, начального и специального  
образования Национальный центра по обучению педагогов новым методикам*

*Наманганской области. [kadirovanilufar81@gmail.com](mailto:kadirovanilufar81@gmail.com)*

### **Аннотация**

В данной научной статье в процессе обучения и воспитания раскрыть скрытые таланты детей, создать возможность учащимся проявить свою

креативную активность, развивать креативные способности, в будущем они проявят высокий потенциал, описаны социальная активность, острый ум и изобретательность, научные гипотезы о развитии конкурентоспособных кадров. Кроме того, на уроках используются интерактивные методы обучения, используя технологии совместного обучения, преподаватели создают интересный учебный опыт, который стимулирует креативное мышление, развивает командное сотрудничество и улучшает коммуникативные способности учащихся.

#### **Ключевые слова**

Креативная деятельность, жизненные навыки, технологическое образование, компетентность, общение, проект, критическое мышление, работа в команде, креативный потенциал.

## **ISSUES OF ORGANIZING STUDENTS' CREATIVE ACTIVITY IN TECHNOLOGY LESSONS**

**Kadirova Nilufar Mirzaakbarovna**

*Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences*

*Namangan region national center for Training Pedagogues in New methods, head of the Department of Pre-School, Primary and Special Education Methods*

[kadirovanilufar81@gmail.com](mailto:kadirovanilufar81@gmail.com)

#### **Abstract**

In this scientific article, in the process of education and upbringing, the hidden talents of children are brought to light, creating an opportunity for students to show their creative activity, developing their creative ability, in the future they will be highly potential, socially active, sharp minded scientific hypotheses about the development of competitive personnel capable of demonstrating inventiveness are described. in addition, through the use of interactive educational methods, collaborative learning technologies in classes, teachers can create interesting learning experiences that stimulate creative thinking, develop team cooperation and improve the ability to communicate among students will be discussed.

#### **Keywords**

Creative activity, life skills, technological education, competence, communication, project, critical thinking, team cooperation, creative potential.

#### **KIRISH:**

Mamlakatimiz yoshlarini mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlaridan hech qaysi sohada kam bo'lmaydigan kadrlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz tomonidan barcha ishlar amalga oshirilmoqda, barcha shart-sharoitlar yaratilmoqda.

Darhaqiqat, hozirgi kunda Respublikamizning barcha ta'lim muassasalarida o'quvchi-yoshlarning yuksak ma'naviyatli, mustaqil va erkin fikr yuritish ko'nikmasiga ega bo'lishlari, zamonaviy ilm-fan yutuqlarini puxta o'zlashtirishlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratilgani, zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari va laboratoriya jihozlari bilan ta'minlangan muassasalarda ta'lim olishmoqda. Soha mutaxassislarining navbatdagi vazifasi yaratilgan keng imkoniyatlardan unumli foydalanib, zamonaviy axborot kommunikatsiya vositalari, ilg'or pedagogik texnologiyalarni amaliyotga qo'llash orqali o'quvchilarda katta hajmdagi ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash, tanqidiy fikrlash, mustaqil faoliyat yuritish ko'nikmalarini shakllantirish, aqliy-intellektual, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali mutaxassis bo'lib yetishishini ta'minlovchi samarali ta'lim jarayonini tashkil etishdan iborat. Ta'lim jarayoni o'quvchi shaxsining rivojlanishi, atrof-olamni idrok etishi, bilimlarni o'zlashtirishi, malaka va ko'nikmalar, ilmiy tasavvurlarning hosil bo'lishida muhim bosqich hisoblanadi. O'quvchilarda bilish jarayoni ijodiy faoliyat natijasida yuz beradi. O'quvchining berilgan topshiriqni bajarish jarayonida izlanishi, ijodiy faoliyati namoyon bo'lishi uchun aniq maqsadga yo'naltirilgan, rejalashtirilgan, me'yor va mezonlarga ega bo'lgan, o'z-o'zini anglagan faoliyat zaruriyati seziladi. Bu esa o'quvchida atrof-olam ob'yektlari va ular haqidagi bilimlarni o'zlashtirish; ta'lim samaradorligini vujudga keltirish, faoliyatning avvalgi turlariga tayanishni taqozo etadi. O'quvchilarda kreativlik faoliyatini shakllantirish texnologiyasini ishlab chiqish muammosi ko'p qirrali pedagogik-psixologik ijtimoiy vazifalardan biri bo'lib, jamiyat ijtimoiy rivojlanishi va taraqqiyoti uchun dolzarb vazifalardan biridir. Kreativlik – ijodkorlik faoliyatning tarkibiy qismi sifatida turli holatlarda paydo bo'ladi. Qiziqish, ilhom, intilish va boshqalar ijodkorlikning inson ongida eng oliy tarzda paydo bo'lishidan tortib, to namoyon bo'lishigacha bo'lgan jarayonni o'z ichiga oladi. Shaxsning ijodiy faoliyat ehtiyoji faoliyatda yangi, ilgari maqsad qilib qo'yilmagan bunyodkorlik intilishini bildiradi. Ta'lim-tarbiya jarayonida bolalardagi yashirin iste'dodlarni yuzaga chiqarish, o'quvchilarda ijodkorlik faoliyatini namoyon qilishi uchun imkoniyat yaratish, ulardagi ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish kelajakda yuksak salohiyatli,

ijtimoiy faol, o'tkir zeharli, kashfiyotchilik qobiliyatini namoyon eta oladigan raqobatbardosh kadrlarni voyaga yetkazish garovi bo'lib hisoblanadi.

### **METODIKA:**

Texnologik ta'limda o'quvchilarda ijodiy faollikni shakllantirish ta'lim-tarbiya jarayonining muhim tarkibiy qismi sanaladi. Texnologik ta'limning faol va yetakchi sub'yektlari bo'lgan o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlari, texnologik ta'limning o'ziga xos jihatlari o'qituvchidan kreativ yondashuvni talab qiladi. Maktab va o'qituvchining vazifasi o'quvchilarga ta'lim berishgina emas, balki ularning qobiliyatlarini ham rivojlantirishdan iborat. Texnologik ta'lim o'qituvchisi o'z o'quvchilarida qanday qobiliyatlar borligi, ularning o'qishga bo'lgan intilishlari, o'quv materialini o'zlashtirish darajalari, eslab qolish va o'z bilimlarini o'quv topshiriqlarni bajarishda qo'llay olish, muammolarning yechimini topishda kreativ fikr yuritish, yozma va og'zaki nutqni qanchalik egallaganliklariga qarab bilib olishi mumkin. Shuningdek, quyidagi sifatlar: ziyraklik, tez va puxta eslab qolish, fikr yuritish, topqirlik, tasavvur qilish, ishda tashabbuskorlik, mustaqillik va uning mahsuldorligi o'quvchilar qobiliyatlarining ba'zi bir ko'rsatkichlari bo'lishi mumkin. O'qituvchi o'quvchilar bilan har bir ishda tashabbus va ijodkorlik ko'rsatkichlarida ularni har jihatdan rag'batlantirib turishi kerak. O'quvchi qiynalib qolganda unga yordam berishga shoshilish yaramaydi, ularning ijodiy izlanish va muammo yechimini o'zlari topishlariga imkon berish zarur. Bu esa o'quvchilarda kreativ sifatlar hosil bo'lishiga yordam beradi.

Texnologik ta'lim o'qituvchisi ta'lim oluvchilar orasida kreativ qobiliyati yuqori bo'lgan o'quvchini ajrata olishi; ularning boy tasavvuri; ichki sezgining rivojlanganligi; falsafiy fikrlashi; fikr yuritish va harakatni tashkil etishdagi tezkorligi; tafakkur tezligiga egaligi; turli vaziyatlarni birdek qabul qilishi va ularga javob berishi; yuksak badiiy qadriyatlar, yangilik yaratish layoqatiga egaligi; o'ziga xos noodatiy g'oyalarni ilgari sura olish kabi sifatlar borligini aniqlashi va bu sifatlarini o'quv jarayonida rivojlantirishga e'tibor qaratishi muhimdir.

Kreativlik quyidagi ichki komponentlardan tashkil topadi:

- o'quv topshiriqlarini bajarishga tayyorlik;
- mustaqil faoliyatga intilish;
- topshiriqlarni ongli bajarish;
- o'qishning tizimlili;
- o'zining shaxsiy imkoniyatlarini oshirishga harakat qilish;
- har qanday sharoitda muammoning noodatiy yechimlarini topa olish;
- bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni aniq vaziyatlarda to'g'ri qo'llay olish va boshqalar.

O'qituvchi o'quvchilarda kreativlikni shakllantirishda quyidagi qator tamoyillarga amal qilishi talab etiladi:

1. Ta'limni individuallashtirish.
2. Ta'limni rivojlantirish.
3. Faoliyat turlariga qulay sharoitlarni yaratish.
4. O'quvchilar kreativligining o'quv va amaliy faoliyatda namoyon bo'lishiga imkoniyatlar yaratish.
5. Darsdan tashqi faoliyatlar (ishlar) imkoniyatlaridan unumli foydalanish.
6. Ta'limni rivojlantiruvchi tamoyillarni qo'llash.

Texnologik ta'lim o'qituvchisi o'z o'quvchilarining ijodiy faolligini rivojlantirishda texnologik ta'limni boshqa fanlar bilan o'zaro aloqadorlikda o'rgatish negizida quyidagilarni ham inobatga olishi lozim:

- o'quvchilarning o'quv fanlari ichida qay biriga ko'proq qiziqishini aniqlash;
- o'quv fanlari bo'yicha tayyorlangan o'quv materiallar, masala, topshiriqlarning murakkabligi, ijodiyligi, ilmiy-tadqiqot darajalarini o'z ichiga olgan holda o'quvchilar kreativligini shakllantirishga mos tematik reja va dasturlarini tuzish;

- o'quvchilarda kreativlikni shakllantirish yuzasidan individual ish rejalari ishlab chiqish. O'qituvchi dars loyihasi tuzishda o'quvchilarning ijodiy faolligini rivojlantirishda samarali natija beradigan quyidagi faollashtirish vaziyatlarini inobatga olishi muhim:

- o'z fikrida turish;
- bahs-munozaralarda ishtirok etish;
- o'z o'rtoqlari va o'qituvchi oldiga savollar qo'yish;
- o'rtoqlarining javoblarini izohlash;
- o'rtoqlarining javobi va yozma ishlarini baholash;
- orqada qolganlarga ko'maklashish;
- bo'sh o'zlashtiruvchilarga tushunmaganlarini tushuntirish;
- kuchi yetadigan topshiriqni mustaqil tanlash;
- biluv topshiriqlarining bir necha variantdagi yechimini topish;
- o'z-o'zini tekshirish, o'zining biluv va amaliy xatti-harakatlarini tahlil qila olish;

- berilgan topshiriqlarini o'ziga ma'lum bo'lgan usullarni qo'llagan holda bajarish.

### **NATIJALAR:**

Biz pedagogik tajribalarimizda texnologik ta'lim o'qituvchilari uchun o'quvchilarda kreativ faoliyatni rivojlantirish yuzasidan o'quv vaziyatlarini



yaratish va o'tkazish texnologiyasini ishlab chiqish bo'yicha yo'l-yo'riqlarni ishlab chiqishga harakat qildik. Ularni quyida keltirib o'tamiz:

1. Izlanuvchi vaziyatning asosiy ta'limiy ob'yektini (narsa, tushuncha, hodisa, jarayon, an'ana, buyum va b.) aniqlash. Bunda:

- ob'yekt va o'quvchilar uchun qiziqarli bo'lgan muammoni aniqlash;
- o'quvchilarga ularning o'rganilayotgan ob'yekt bilan shaxsiy ichki aloqasini topishga yordam berish, ular uchun shaxsan ahamiyatli muammolarni qanday tayyorlash bo'yicha o'ylashga yo'naltiradi.

2. O'quvchilarga yechimi noma'lum bo'lgan muammo yoki topshiriq beriladi. Ushbu topshiriqni amalga oshirish sinfda ko'tarinkilik hamda o'quvchilar topshiriqni bajarish orqali o'zlarining faolligini namoyon etgandagina samarali bo'ladi.

3. Topshiriqning ta'riflanishi muammoni jamoa bo'lib muhokama qilishning natijasi bo'lishi mumkin. O'quvchilar tomonidan ta'riflangan topshiriq shunchaki qiziqarli emas, balki yangilik bo'lsagina maqsadga erishilgan bo'ladi.

4. O'quvchining o'zi paydo bo'lgan yoki yaratilgan vaziyat (topshiriq)ni shaxsan hal etishga imkoniyat yaratish – evristik vaziyatning asosiy bosqichi sanaladi. Bunda har qanday ta'lim natijasidan ijod belgisini aniqlash lozim.

5. O'quvchilarni ta'limiy ijod namunalarini namoyish etishi:topshi-riqlar, ta'riflar, ramzlar, rasmlar, loyihalar va shu kabilarni jamoada muhokama etib, ko'rgazmalar tashkil etish, o'zaro yozma taqrizlar yozdirish, ma'ruzalar bilan chiqishlar qilish.

6. Ta'limiy ijod namunalari namoyish etilgandan keyin rasmlar,ta'riflar, boshqa mutaxassislarning fikrlari, darsliklaridagi ma'lumotlar, shaxsiy bilim va tasavvurlari bilan asoslay olish.

7. O'quvchilarning ijod namunalarini qiyoslash, solishtirish, tasniflash bo'yicha faoliyatini tashkil etish. O'quvchilar tomonidan o'z qarashlari yoki ijod namunalarini aniqlash hollari yuz bersa, ularga o'z nuqtai nazarlarining o'zgarish sabablarini tushunishlarida ko'maklashiladi va ta'limiy vaziyatlarning rivojlanishi ta'minlanadi.

8. O'quvchilarning bilishga oid qo'llanilgan usullar, paydo bo'lgan muammo va uni yechish yo'llarini tushunishi bo'yicha fikr yuritish, tahlil etish. O'quvchilarga individual tarzda erishgan natijalarini aniqlashda ko'maklashish, jamoa bo'lib yaratilgan ta'limiy natijalarni aniqlash.

O'quvchilarda ijodiy faoliyatni shakllantirishga mo'ljallangan turli ijodiy topshiriqlardan foydalanish asosida o'quvchilarda mustaqil va ijodiy fikr yuritishga zamin hozirlash mumkin.

## XULOSA:

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, texnologik ta'lim jarayonida o'quvchilarning kreativ faoliyatini rivojlantirish uchun kreativ muhitni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun ta'lim talablarini aniqlash va shu talablar asosida uning ustuvor yo'nalishlarini izlanuvchi ta'lim, muammoli vaziyatlar yaratish va ta'limni texnologik yondashuv asosida tashkil etilishi o'quvchilar kreativ faoliyatini rivojlantirishning samaradorligiga zamin tayyorlaydi. Texnologik ta'limda o'quvchilarda kreativ faoliyatni rivojlantirish o'ziga xos pedagogik- psixologik xususiyatga ega bo'lib, bular o'quvchilarning aqliy faoliyatini rivojlantirish bilan bog'liq holda mashg'ulotlarga maqsadli yondashuv, o'quvchilarning qobiliyati, qiziqishi, xohish va istaklarini hisobga olish, ahloqiy-estetik hissiyotini tarbiyalash, bilimlar, ko'nikma, malakalarini faoliyatning turli shakl va metodlarini egallab olishga yo'naltiriladi. Kreativ faoliyat ta'limning uch turi orqali o'quvchining ijodiy faoliyati, bilishga doir faoliyati, tashkiliy faoliyat kabi sifatlarning shakllanishi asosida rivojlanadi va bular ta'limning noan'anaviy shakl va metodlari vositasida samarali natijalarga olib keladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: "O'zbekiston" NMIU, 2018. – B. 486.
2. Gardner H. Creativity, wisdom and trusteeship. Exploring the Role of Education. – Amazon, 2007. – pp. 200.
3. Ibragimova G.N. "Interfaol o'qitish metodlari va texnologiyalari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish" mavzusidagi dok. diss. - T.: 2017. – B. 147.
4. Ishmuhammedov R.J, Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). – T.: "Iste'dod", 2008. – B. 180.
5. Kadirova N. Texnologiya fani servis xizmati yo'nalishi darslarida o'quvchilarning kreativ yondashuvini rivojlantirish. – Monografiya // Farg'ona: "SUNRISE-PRO" nashriyoti, 2023. – B. 152.
6. Kadirova N. Texnologiya fani servis xizmati yo'nalishida mahsulotlarni loyihalash va tayyorlash mashg'ulotlarida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanib o'quvchilarni kreativ fikrlashga o'rgatish. - Uslubiy qo'llanma // - Namangan: "Usmon Nosir media", 2021. – B. 82.

7. Karimov I. O'quvchilar ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishning uyg'unlashgan texnologiyalari: Monografiya. T.: "Adabiyot uchqunlari", 2020. - 194 b.

8. Qo'ysinov O.A., Sattarov V.N., Yakubova H.S. "Mehnat ta'limidan amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish metodikasi" Metodik qo'llanma. - T.: TDPU, 2011. - B. 102.

9. Tilakova M. Yuqori sinf o'quvchilarining kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish. -T.: "Fan", 2016. - B. 172.

10. <http://trinitki.ru>

11. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)